International

scientific and practical conference

DECEMBER 6
2024

2024



STDF

Science technology& Digital finance

Google Scholar

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

Scientific journal of Science technology & Digital finance

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic

(December 6, 2024)

(Part 2)

Jizzakh-2024

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic – Jizzahk: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, December 6, 2024, 450 pp.

Editors in charge: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O'ralov A.I.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

YOSHLARGA YARATILAYOTGAN SA’Y-HARAKATLAR VA ULARNING KELAJAKDAGI NATIJASI VA SAMARASI



Saloxitdinov Sherzod Farxodovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali dotsenti
Daminov Xumoyun Xazrat o‘g‘li
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
Turizm fakulteti talabasi
E-mail: xumoyundaminov507@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada shuni ko‘rishingiz mumkinki, ya’ni hozirgi davrda yoshlarga O‘zbekistonda yaratilayotgan keng imkoniyatlar va ularning kelajakda samarasi va natijasi tahlil qilingani yoritilgan. Yaratilgan shart-sharoitlar orqali O‘zbekistondagi yoshlarning bilim olish darajasining o‘sishi va hukumat tomonidan har bir yoshlar masalasining o‘rganilishi va shu kabi masalalar mukokamasini ko‘rishingiz mumkin.

Kalit so‘zlar: yoshlar masalasi, bilim, chet el universitetlari, ishsizlik va kasb-hunar.

O‘zbekiston Respublikasida 2023-yilgi statistika bo‘yicha 14-30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar soni 9 654 351 kishini tashkil qilmoqda. [1] Bu esa jami aholi sonining qariyb 30% ni tashkil qiladi. Yoshlarga berilayotgan keng imkoniyatlarni biz Prezidentimiz tomonidan 2024-yilning “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” deb nom olishi ham yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar belgisidir. Undan tashqari yoshlar masalasi bilan shug‘ullanadigan “Yoshlar ishlari agentligi” O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 30-iyundagii PF-6017-son farmoni bilan agentlik sifatida qayta tashkil etilishi hamda 2022-yil 30-dekabrda Yoshlar ishlari agentligi O‘zbekiston Respublikasi sport vazirligi bilan birlashtirilib, O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi tashkil qilinishi ham yoshlarga bo‘lgan imkoniyatning keng namoyishidir. [2] Bu kabi qonunlar shuni anglatadiki, yoshlar hozirgi davrda O‘zbekiston siyosatining uzilmas bir qismidir. Sabab nega aynan yoshlar? Javobi shundan iboratki, yoshlarimiz agar ilmli va yetuk shaxs bo‘lsa, yurtimizning kelajakda har bir sohaning rivojlanishiga o‘z hissalarini qo‘shishadi. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev BMTning Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi so‘zlagan nutqlarida ta’kidlaganlaridek, “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.” [3]

Shu shior asosida O‘zbekistonda yoshlarga oid 100 dan ortiq imkoniyatlar yaratilmoqda. Biz yoshlar esa bizga berilgan har bir imkoniyatdan to‘g‘ri foydalangan holatda, kelajakda yurtimiz uchun qo‘limizdan kelgancha bizdan

keyingi avlod uchun shart-sharoit yaratish va dunyo hamjamiyati oldida yurtimizning bor yutuqlarini ko‘rsatishdan iboratdir.

Yoshlarga berilgan imkoniyatlarni sanab o‘tsak, birinchidan ularning oliy o‘quv yurtlarida o‘qish uchun xotin-qizlarga ajratilgan “Xotin-qizlar ligotasi”, o‘g‘il bolalar uchun esa yurt oldida o‘tab kelgan burchi uchun harbiy imtiyoz berilishi va shu qatori ko‘plab turli xil 40 dan ziyod imtiyozlarning borligi, o‘ylaymanki, ularning ilmli va saviyali bo‘lishi uchun o‘rta ta’limdan so‘ng oliy ta’limda o‘z o‘qishlarini davom etirish uchun keng imkoniyatlaridan biridir. Ikkinchidan, oilasida o‘qish uchun shart-sharoit bo‘lmagan taqdirda yoki boshqa sabablar tufayli ham yoshlar uchun o‘rta ta’limdan so‘ng kelajakda ishsizliknining oldini olish uchun ularni kasb-hunarga jalb qilishmoqda, misol uchun hozirgi davrda zamonaviy kasblardan biri komputer savodxonligi ham yurtimizda keng rivojlanmoqda. Uchinchidan esa, ehtiyojmand oilalarning farzandlarini qo‘llab-quvvatlash uchun eng kichik birlik hisoblangan har bir mahallalarda “Yoshlar daftari” o‘z faoliyatini olib bormoqda. Uning asosiy vazifalardan biri ishsiz bo‘lgan yoshlarni ish yoki kasb-hunar o‘rgatish orqali muammolarga yechim topilmoqda. Undan tashqari, biz bosh qomusimiz hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham yoshlarga oid moddalarni ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, XIV bob “Oila, bolalar va yoshlar” deb nomlanganiga hamda undan yoshlarga oid qator normalar o‘rin olganiga e’tibor qaratish darkor. Bunday yangicha yondashuv, shubhasiz, Yangi O‘zbekistonda yoshlar siyosati ustuvor ekanligidan yaqqol dalolatdir. [4]. Zotan, yoshlarga qilinayotgan har bir yangiliklar, albatta, kelajakda o‘z samarasi va natijasini ko‘rsatishi mumkin. Savol: qanday natija va yutuqlarga erishamiz va u davlatimiz uchun qanday ahimiyatga ega bo‘ladi? Avvalo, biz shu kabi savollarga javob topishimiz kerak, javobi shundayki, har bir yosh avlod hozirda o‘z sohasining yetuk mutaxasisi bo‘lish uchun o‘z oldiga turli xil maqsadlar qo‘ymoqda, misol qilib, chet eldagi nufuzli universitet talabasi bo‘lishi uchun yurtimizda turli xil imkoniyatlarni yaratib beruvchi tashkilotlar va jamg‘armalar mavjud, jumladan, “El-yurt umidi” jamg‘armasi va shu kabi boshqa tashkilotlar. Chet elda o‘z malakasi va darajasini oshirib kelib, yurtimizda turli xil rivojlantirish ishlarini olib borishmoqda. Chunonchi, professorlar dunyo tan olgan mashhur universitetlarda o‘z bilimlarini chet el o‘qituvchilari bilan o‘zaro almashgan holda, yurtimizdagi oliygohlarda yuqori samara beradigan sistemalarni joriy qilishmoqda, shuni ta’kidlab o‘tish joizki, 2022-2023-yil o‘quv yilida Toshkent shahrida joylashgan ko‘plab universitetlarda “Smart lohiyasi” yo‘lga qo‘yildi. Bu lohiya talabalarga bilimlarni yaxshi va tezroq qabul qilishga yordam bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, biz yoshlarga shu kabi imkoniyatlar bor ekan, biz faqatgina bu qulakliklardan unumli foydalanib, yurtimiz uchun, jamiyat uchun biron-bir yuksaklikka hissa qo‘shadigan vazifalarni qilishimiz zarur.

“Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo‘l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g‘ayratingiz va azmu shijoatingizga suyanamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va

vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo‘shadilar.”-deb nutqlarida ta’kidlab o‘tgandilar prezidentimiz tomonidan. [5]

Biz yoshlar Prezidentimiz ta’kidlagan yurtimiz “Uchinchi Renesansi” bo‘lishga va ularning ishonchini oqlashga harakat qilamiz.!!!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Saloxitdinov S. H. F., Mirsaidov M. TA’LIM MAJMUINI BOSHQARISH VA MEHNAT BOZORI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH BORASIDAGI XALQARO TAJRIBALAR. – 2024.
2. Saloxitdinov S., Sardor I. O ‘ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O ‘SISHNI TA’MINLASH YO ‘NALISHLARI //Actual Problems in Higher Education in the Era of Globalization: International Scientific and Practical Conference. – 2024. – Т. 7. – С. 22-25.
3. Салохитдинов Ш. ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ БИТИРУВЧИЛАРИНИНГ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИ ВА СИФАТИНИ ОШИРИШГА ТАЪСИР КЎРСАТУВЧИ ОМИЛЛАР //Innovations in Science and Technologies. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 115-121.
4. Салохитдинов Ш. ЖИЗЗАХ ВИЛОЯТИ БЎЙИЧА ОЛИЙ ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ СИФАТИНИ БАҲОЛАШ ТИЗИМИНИНГ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 466-473.
5. Farxodovich S. S. INSON KAPITALINING RAQAMLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH //Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). – 2024. – №. 6. – С. 36-45.
6. Салохитдинов Ш. Ф., Ўғли Н. А. Д. ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ СИФАТИ ОМИЛЛАРИНИ БАҲОЛАШ //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. Special Issue 18. – С. 983-987.
7. Farxodovich S. S. OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TA’LIM XIZMATLARI SIFATINING ASOSIY OMILLARINI BAHOLASH //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. Special Issue 20. – С. 446-450.
8. Farxodovich S. S. MEHNAT BOZORIGA OLIY TA’LIM MUASSASALARI TOMONIDAN BITIRUVCHILARNI TAYYORLASHNI TARTIBGA SOLISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI //QO ‘QON UNIVERSITETI XABARNOMASI. – 2023. – Т. 9. – С. 109-112.
9. Салохитдинов Ш. ОЛИЙ ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ СИФАТИНИ БАҲОЛАШ ТИЗИМИ РИВОЖЛАНИШИНИНГ НАЗАРИЙ ЁДАШУВЛАРИ //Iqtisodiyot va ta’lim. – 2023. – Т. 24. – №. 3. – С. 405-409.
10. Салохитдинов Ш. ЖИЗЗАХ ВИЛОЯТИ БЎЙИЧА ОЛИЙ ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ СИФАТИНИ БАҲОЛАШ ТИЗИМИНИНГ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 466-473.

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024